



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalarini misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнесинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarda rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

3. Азизов Ш., Йулдашева С. Международный аудит. Учебное пособие. - Т.: —иктисод-молия, 2013. - 276.c
4. Urazov K.B. Buxgalteriya moliyaviy hisobi. O‘quv-qo‘llanma. - Samarqand. SamISI, 2013. - 22.B
5. Jo‘raev N., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya nashriyoti. 2012.
6. Tulaxodjaeva M.M., Ilxamov Sr.I. Audit. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisodiyot. 2012.

UDK: 338.24

IQTISODIY ZONALARDA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI INVESTITSION VA INNOVATSION QO‘LLAB-QUVVATLASHNING XORIJIY TAJRIBALARI

МИРОВОЙ ОПЫТ ИНВЕСТИРОВАНИЯ И ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИЙ В ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ

GLOBAL EXPERIENCE IN SUPPORTING ECO-FRIENDLY BUSINESS IN ECONOMIC ZONES THROUGH INVESTMENT AND INNOVATION

Turg‘unova T.

Andijon davlat texnika instituti mustaqil izlanuvchi

Muftaydinov Q. i.f.d.professor

Bugungi kunda iqtisodiy zonalar shunchaki sanoat markazi emas, balki "yashil" va ekologik toza hududlarga aylantirish muhim vazifaga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada iqtisodiy zonalar da ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish, ularni investitsiyalar va zamonaviy innovatsiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Xitoy, Janubiy Koreya va Germaniya tajribasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu yetakchi davlatlar moliya va yuqori texnologiyalarni jalb qilish orqali qanday qilib ekologik loyihalarni samarali yo‘lga qo‘yganini va sirkulyar modelga o‘tganini ko‘rib chiqiladi. Maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad — mazkur xorijiy modellarning eng muvaffaqiyatli jihatlari o‘rganish va ularni milliy iqtisodiyotimiz amaliyotiga moslashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy zonalar, ekologik tadbirkorlik, yashil investitsiyalar, innovatsion qo‘llab-quvvatlash, xorijiy tajriba, yashil moliya, yashil sertifikat.

Сегодня превращение экономических зон в «зеленые» и экологически чистые хабы, а не просто в промышленные центры, становится важнейшей задачей. В данной статье анализируется опыт Китая, Южной Кореи и Германии в развитии экологического предпринимательства в экономических зонах и его поддержке за счет инвестиций и инноваций. В исследовании рассматривается, как эти ведущие страны успешно реализуют экологические проекты и переходят к циркулярным моделям, эффективно привлекая финансирование и внедряя высокотехнологичные решения. Главная цель — изучить эти успешные зарубежные подходы и разработать конкретные рекомендации по адаптации их лучших практик в национальную экономику.

Ключевые слова: экономические зоны, экологическое предпринимательство, зеленые инвестиции, поддержка инноваций, зарубежный опыт, зеленое финансирование, зеленый сертификат.

Today, transforming economic zones into "green" and eco-friendly hubs rather than just industrial centers is becoming a critical priority. This paper analyzes international practices in developing eco-entrepreneurship within economic zones and supporting it through investment and

innovation, focusing on the experiences of China, South Korea, and Germany. The study examines how these leading nations successfully implement environmental projects and transition to circular models by effectively channeling funding and driving high-tech solutions. The primary goal is to explore these successful foreign frameworks and provide practical recommendations on adapting their best practices to enhance the national economy's sustainability.

Keywords: economic zones, ecological entrepreneurship, green investments, innovation support, foreign experience, green finance, green certificate.

Dunyo bo'yicha maxsus iqtisodiy zonalarda "yashil" biznesni rivojlantirishning yo'llari ko'p. Har bir davlat buni o'zining sharoiti, resurslari va qonunlaridan kelib chiqib qiladi. Deyarli hamma joyda muvaffaqiyatning bir nechta asosiy sirlari bor. Davlatning o'zi bunga bosh-qosh bo'lishi, qonunlarning barqarorligi, tadbirkorlarga moliyaviy tomondan yordam va imtiyozlar berilishi hamda bu tizimning uzoq yillar davomida to'xtab qolmasligi kerak. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion innovatsion qo'llab – quvvatlashning xorij tajribalarini Osiyo va Yevropa davlatlari misollarida ko'rib chiqamiz.

Xitoyda ekologik tadbirkorlik va yashil iqtisodiy zonalar sohasida dunyoning eng katta va muvaffaqiyatli loyihalari amalga oshirib kelinmoqda. Bunga 1980-yillardagi dastlabki maxsus iqtisodiy zonalar yaratilishi asos bo'la oladi. Dastlab, Shenzhen, Zhuhai, Shantou va Syamen shaharlarida tashkil etilgan dastlabki zonalar asosan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirgan. 2000-yillarga kelib, *"Avval iqtisodiyotni rivojlantiramiz, tabiatni keyin o'ylaymiz"* degan siyosat katta ekologik fojialarga, zaharli suvlar va turli kasalliklar ko'payishiga olib keldi. Ayniqsa, Shenzhen, Chuxay kabi dastlabki iqtisodiy zonalar zavod va tutunlarga to'lib ketgandi. Shundan so'ng, ular "Ekologik sivilizatsiya" degan yangi strategiyani boshlashdi. Ular asosan quyidagi yo'nalishlarda loyihalar amalga oshirdilar:

sanoat simbiozi	elektromobillashtirish	uglerod savdosi
• bir korxonaning chiqindilari ikkinchi korxona uchun xomashyo yoki energiya manbai	• barcha avtobus va taksilarni to'liq elektrga o'tkazish	• eko zonalarda havoni muhofaza qilish uchun hududiy uglerod bozorini tashkil qilish

Sanoat simbiozi loyihasiga ko'ra [1], eski zonalarda har bir zavod o'z chiqindisini tabiatga oqizgan bo'lsa, endi zavodlar bir-biriga zanjir qilib bog'landi. Shenzhen va unga yaqin zonalarda elektronika zavodlari qurildi. Ulardan chiquvchi juda issiq oqova suvlar to'g'ridan-to'g'ri daryoga o'qitilmay, maxsus quvurlar orqali qo'shni turgan kiyim-kechak yoki oziq-ovqat zavodlariga yuborildi. Ular bu issiq suvdan o'z sexlarini isitish yoki mahsulot pishirishda tekinga foydalanishdi. Bir zavodning metall qirindisi va kimyoviy chiqindisi, uning yonidagi boshqa bir qayta ishlash zavodi uchun tayyor xomashyoga aylantirildi. Natijada chiqindi deyarli nolga tushirildi. Shenzhen dunyoda birinchi bo'lib o'zining barcha jamoat transportini, avtobus va taksilarini to'liq elektrga o'tkazgan megapolis hisoblanadi [2]. 2010-yillarning boshida Shenzhen ko'chalarida 16 mingdan ortiq dizelli avtobuslardan foydalanilgan. Hukumat ularning hammasini elektrobuslarga almashtirdi. Tasavvur qiling, bir kunda shuncha ulkan mashina tutun chiqarishni to'xtatdi! Shaharda shovqin keskin kamaydi, havo tozalandi va eng qizig'i — elektrobuslar tufayli shahar har yili millionlab dollar yoqilg'i pulini tejab qola boshladi.

"Uglerod savdosi" tizimiga ko'ra [3], tadbirkorlar havoni bulg'aganligi uchun jarima emas, soliq to'lovi joriy qilindi. Xitoy hukumati tadbirkorlarni shunchaki jazolash o'rniga, ularni "yashil" bo'lishga qiziqtiradigan tizim yaratdi. Shenzhen Xitoyda birinchi bo'lib Uglerod birjasini ochdi.

Buni bir misolda ko'rsak, davlat hududdagi ikkita zavodga *"Yiliga 100 tonnadan ortiq zararli gaz chiqarishingiz mumkin emas"* deb limit beradi. Birinchi zavod zamonaviy filtrlar o'rnatib, havoga atigi 60 tonna gaz chiqardi va 40 tonna limiti ortib qoldi. Ikkinchi zavod esa eski usulda ishlab, 140 tonna gaz chiqardi, natijada limitdan 40 tonna ko'payib ketdi. Endi 2-zavod katta jarima to'lamasligi uchun haligi tejamkor 1-zavoddan ortib qolgan 40 tonnalik limitini pullab sotib olishga majbur bo'ladi. Tabiatni asragan zavod havoni sotib pul ishlaydi, havoni bulg'agan zavod esa cho'ntagi kuygach, baribir filtr o'rnatishga majbur bo'ladi.

Hozir Shenzhenda butun boshli dahalar to'liq "yashil" energiyaga o'tmoqda. U yerdagi uylarning tomlari, avtoturargohlar, hatto sport majmualarining oynalarigacha quyosh panellari bilan qoplangan. Masalan, mashhur *Shenzhen Bay* stadioni o'z tomi orqali bir yilda 300 ta oilaga yetadigan elektrni quyoshdan oladi. Bu energiya kechasi stadionni yoritishga va elektromobillarni quvvatlashga yetadi.

Xitoy o'zining iqtisodiy zonalarini shunchaki pul ishlaydigan zavodlar makonidan — tabiatga zarar bermaydigan yuqori texnologiyalar markaziga aylantirdi. Eski, iflos zavodlar yo yopildi, yo chekkaga ko'chirildi. Ularning o'rnini esa BYD kabi dunyoga mashhur ekologik toza brendlar egalladi.

Bunday ulkan loyihalarga juda katta mablag' talab etiladi. Xitoy hukumati buni shunchaki byudjetdan subsidiyalar berish hisobiga emas, balki "yashil moliya" mexanizmi orqali hal qiladi. Iqtisodiy zonalarda faqat ekologik loyihalar uchun ishlatiladigan maxsus "yashil obligatsiyalar" va arzonlashtirilgan kreditlar joriy etildi [4]. Ya'ni, agar siz tabiatga foyda keltiradigan texnologiya yaratsangiz, banklar sizga eng past foizlarda kredit bera boshladi. Bu esa butun dunyo investorlarini Shenzhendagi yashil loyihalarga pul tikishga olib keldi.

Xitoyda, davlat ekologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun bir nechta vositalar qo'llaydi. Soliq imtiyozlari: toza texnologiyalar bo'yicha sertifikatlangan korxonalar korporativ daromad solig'idan 3 yil muddatga to'liq ozod etiladi, keyingi 3 yil esa yarim stavkada to'laydi. Xitoy Xalq banki va davlat banklari ekologik loyihalar uchun bozor foiz stavkasidan 20-30 foiz past bo'lgan preferensial kreditlar taqdim etadi. Hukumat yashil kompaniyalarda ustuvor ro'yxatdan o'tish imkoniyatini beradi. Xitoy uglerod bozori (ETS) 2021-yilda rasman ishga tushirildi va dunyo bo'yicha eng yirik uglerod savdosi platformasiga aylandi.

O'zbekistonda ham yirik sanoat hududlari mavjud. Masalan, Navoiy erkin iqtisodiy zonasidagi yirik kimyo yoki metallurgiya zavodlaridan chiquvchi ulkan issiqlik energiyasi yoki oqova suvlarni shunchaki havoga va yerga chiqarmasdan, atrofda quriladigan qishloq xo'jaligi issiqxonalari yoki yengil sanoat korxonalarini isitishga tekinga yo'naltirish mumkin. Bu zavodlarning xarajatini ham, tabiatga zararini ham keskin kamaytiradi.

Hududiy Uglerod bozorini sinovdan o'tkazib ko'rish kerak. Xitoy korxonalarni shunchaki jarima bilan jazolamay, ularni ekologik toza bo'lishga pul orqali qiziqitirdi. Bizda buni qanday amalga oshirsa bo'ladi? Toshkent yoki Olmaliq kabi havosi eng ko'p ifloslanayotgan hududlardagi zavodlar uchun havoga chiqariladigan zararli gazlar limiti (kvotasi) belgilanishi kerak. Filtr o'rnatib, limitni tejagan aqlli tadbirkor o'zining ortib qolgan kvotasini limitdan oshib ketgan boshqa bir eski zavodga pullab sotishi mumkin bo'ladi. Bu tadbirkorlarni jazolash uchunmas, foyda olish maqsadida "yashil" texnologiyaga sarmoya kiritishga undaydi. Xitoyda past foizli "yashil kreditlar" va maxsus obligatsiyalar biznesni tez o'zgartirdi.

Odatda tomchilab sug'orish tizimi, quyosh panellari o'rnatish, chiqindini qayta ishlash loyihalari o'zini darrov qoplamaydi. Shuning uchun davlat banklar orqali faqat yashil loyihalar uchun beriladigan, foizi juda past va qaytarish muddati uzoq, 10–15 yillik bo'lgan "Yashil kreditlar" liniyasini ko'paytirishi kerak. Arzon va qulay bo'lsa, tadbirkorlar o'zi yashil texnologiyalarga o'ta boshlaydi.

Xursand qiladigan jihati, O'zbekistonda ham bu borada dastlabki amaliy qadamlar tashlana boshladi. Masalan, oxirgi yillarda yurtimizda aholi va tadbirkorlar uylar hamda binolarga quyosh

panellari o‘rnatilgan, davlat ularni bir necha yilga mol-mulk va yer solig‘idan mutlaqo ozod qilyapti. Bu esa yashil texnologiyaga o‘tgan biznes uchun juda katta iqtisodiy yengillikdir.

Bundan tashqari, bank tizimida ham o‘zgarishlar bor: hozirda tadbirkorlar uchun tomchilatib sug‘orish yoki energiya tejamkor uskunalari sotib olishga imtiyozli bank kreditlari ajratilmoqda. Hatto oddiy aholi uchun ham quyosh panellarini 3 yilgacha foizsiz, bo‘lib-bo‘lib to‘lash usuli orqali sotib olish imkonini beruvchi xalqaro "Yashil energiya" platformasi ishga tushirildi [5].

To‘g‘ri, bizda Xitoydagi kabi 10–15 yillik juda uzoq muddatli va ulkan hajmdagi yashil obligatsiyalar bozori hali to‘liq shakllanib ulgurmaydi. Lekin davlatimiz Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari bilan birga aynan "Yashil moliya" (Green Banking) tizimini o‘zbek banklariga joriy etish ustida faol ishlayapti. Xitoy tajribasidagidek arzon va uzoq muddatli yashil kreditlarni ko‘paytirishimiz zarur. Bu mexanizm O‘zbekiston iqtisodiy zonalari uchun hozir eng kerakli va to‘g‘ri qadam hisoblanadi.

Janubiy Koreya "Yashil o‘shish" strategiyasi bilan global miqyosda tan olingan. 2009-yilda e‘lon qilingan "Past uglerodli yashil o‘shish milliy strategiyasi" [6] Prezident Li Mung Bak tomonidan 2008-yilgi moliyaviy inqirozga yechim sifatida taklif qilingan edi. Strategiya ikki maqsadni ko‘zladi: iqtisodiy inqirozdan chiqish va uzoq muddatli barqaror rivojlanish.

"Yashil O‘shish" strategiyasi doirasida Janubiy Koreya 2009-2013-yillar oralig‘ida YAIMning 2 foiziga teng — jami 80 mlrd dollar — yashil infratuzilma va ekologik sanoatga investitsiya qildi. Bu dunyodagi eng yirik nisbiy yashil rag‘batlantirish paketlaridan biri edi. Ushbu mablag‘lar temir yo‘llar va jamoat transportini modernizatsiya qilish, daryolarni qayta tiklash, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya quvvatlarini kengaytirish uchun ishlatildi.

Incheon erkin iqtisodiy zonasi (IFEZ) Janubiy Koreyaning yashil iqtisodiy zona modelining eng yorqin namunasi hisoblanadi. 2003-yilda tashkil etilgan IFEZ Songdo, Cheongna va Yeongjong hududlarini o‘z ichiga oladi. Songdo "aqlii shahar" konsepsiyasiga asoslangan va ekologik me‘morchilik standartlari bo‘yicha qurilgan. Songdoning binolarining 40 foizdan ko‘prog‘i LEED yashil bino sertifikatiga ega. Shahar 40 foiz yashil yoki ochiq maydonga ega bo‘lib, aholining 30 daqiqalik piyoda yurishida barcha zaruriy xizmatlar mavjud — bu "15-daqiqali shahar" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishning eng yaxshi namunasi.

Janubiy Koreyaning innovatsion mexanizmlari orasida "yashil texnologiya" sertifikatlash tizimi alohida o‘rin egallaydi. Bu tizimga ko‘ra, ekologik texnologiyalarga rasmiy davlat sertifikati beriladi va sertifikat egalari davlat xaridlarida ustunlik, bank kreditlarida past foiz stavkasi, eksport qo‘llab-quvvatlash dasturlarida birinchi o‘rin kafolatlari beriladi. 2020-yilga kelib 5000 dan ortiq texnologiya ushbu sertifikatni olgan [7].

Janubiy Koreya shunchaki quruq qonunlar bilan cheklanmay, ekologik toza biznesni davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri pul va buyurtmalar bilan rag‘batlantiradigan mukammal zanjir yaratdi. Bu tizim tadbirkorlarni "Yashil sertifikat" olish uchun bor kuchi bilan innovatsiya qilishga majbur qilmoqda. O‘zbekistonda biz ham tadbirkorlarimizga yashil texnologiyalar uchun rasmiy "Milliy ekologik sertifikat" berishni yo‘lga qo‘yishimiz kerak. Sertifikati bor korxonalarga xuddi Koreyadagidek uchta aniq ustunlik berilishi shart:


1. Davlat buyurtmalari va xaridlarida birinchi navbatda ulardan mahsulot sotib olish;
2. Banklardan eng arzon yashil kreditlar ajratish;
3. Eksport qilganda bojxona va transport xarajatlariga davlat tomonidan subsidiya berish.

Bizda ham Koreya tizimiga o‘xshash poydevor qo‘yila boshlandi. Masalan, mamlakatimizda ekologik toza mahsulotlar uchun xalqaro standartlarga mos Ekologik markirovka tizimi [8] joriy etilmoqda. Shuningdek, sanoat korxonalarida energiya auditini o‘tkazish va energiya tejamkor korxonalarga soliq imtiyozlari berish tizimi ishga tushdi. Ushbu ekologik belgilarni shunchaki chiroyli yorliq emas, balki biznesga davlat xaridlari va arzon kreditlarda ustunlik beradigan haqiqiy iqtisodiy rag‘batga aylantirish kerak.

Germaniya Yevropa Ittifoqida yashil iqtisodiyot va ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishda yetakchi o‘rinni egallaydi. Mamlakatning Energetik burilish siyosati [9] 2011-yilda Fukushima fojiasidan keyin yanada kuchaydi. Germaniya 2050-yilga kelib energiya tizimini to‘liq qayta tiklanadigan manbalarga o‘tkazishni maqsad qilib qo‘ygan.

Germaniyaning "Yashil texnologiyalar klasteri" siyosati iqtisodiy zonalaridagi ekologik tadbirkorlik uchun alohida ahamiyatga ega. Bayern, Baden-Vyurtemberg va Shimoliy Reyn-Vestfaliya erlarida yuzlab ekologik texnologiya klasterlari faoliyat yuritadi. Munich "CleanTech Cluster" bu boradagi eng yirik misoldir — unda 200 dan ortiq kompaniya, 10 dan ziyod ilmiy-tadqiqot institutlari va 3 ta yirik universitet birgalikda ishlaydi. Klasterda yillik 50 dan ortiq ekologik startaplar tug‘iladi va ular uchun dastlabki investitsiya markazlashtirilgan holda "yashil kapital" fondlaridan taqdim etiladi.

Ushbu yashil klasterlarda oliy ta’lim, fan va biznes bir tanu bir jon bo‘lib ishlaydi. Masalan, klaster tarkibidagi universitet laboratoriyasida olimlar "oddiy oqova suvlarni tozalab, undan vodorod, ekologik toza yoqilg‘i ajratib oladigan yangi filtr texnologiyasini o‘ylab topishdi, keyin jarayon zanjirsimon tarzda quyidagicha davom etadi:



Bu tizimga ko‘ra, universitet talabalari va professorlar texnologiyaning laboratoriya nusxasini yaratishadi. Klaster ichidagi ilmiy-tadqiqot instituti esa buni zavodlar ishlata oladigan darajadagi yirik loyiha holatiga keltirib beradi. Ushbu ixtirochi yoshlar klaster ko‘magida darhol o‘zlarining kichik innovatsion kompaniyasini startapini ochishadi. Klaster fondi bu yangi g‘oyaga hech qanday bank kreditlarisiz, darhol "yashil investitsiya" sifatida boshlang‘ich pul ajratadi. Klaster ichidagi 200 ta yirik kompaniyadan biri, masalan, mashhur Siemens yoki BMW kompaniyalari bu yangi filtrlarni o‘z zavodiga o‘rnatish uchun sotib oladi. Tashkilotlarning umumiy maqsadi — universitetdagi ilmiy g‘oyani klaster puliga tayyor mahsulotga aylantirish va uni klaster ichidagi zavodlarga darhol sotishdir [10]. Shuning uchun ham ulardan har yili 50 dan ortiq yangi yashil biznes loyihalari yaratiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham ilm-fan bilan biznesni klaster usulida birlashtirishda dastlabki ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda yosh ixtirochilarni qo‘llab-quvvatlash uchun Inno-klasterlar va oliy ta’lim muassasalari qoshida Inkubatsiya markazlari tashkil etildi [11]. Innovatsion rivojlanish agentligi va "Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" tomonidan ekologik g‘oyalar hamda energiya tejamkor startaplarni davlat granti hisobidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, Toshkentdagi yangi Markaziy Osiyo Yashil universiteti va boshqa texnik oliygohlar aynan ekologik muammolarga yechim bo‘ladigan ilmiy ishlanmalar ustida tadqiqotlar boshladi. To‘g‘ri, bizda poydevor bor, lekin zanjir hali to‘liq ulanmagan. Germaniya tajribasidan kelib chiqib, quyidagi 2 ta muhim mexanizmni amaliyotga kiritishimiz lozim:

- Bizdagi startaplar ko‘pincha laboratoriyadan chiqa olmaydi, chunki ularni Navoiyazot, Olmaliq KMK yoki UzAuto kabi yirik zavodlar sotib olmaydi. Biz ham yirik sanoat zonalarimiz qoshida vodorod energetikasi, ekologik filtrlar yoki chiqindini qayta ishlash bo‘yicha maxsus "CleanTech" mini-klasterlarini qurishimiz kerak. Yirik davlat korxonalariga milliy startaplar mahsulotini sotib olish majburiyatini yoki soliq imtiyozini berishimiz kerak.

• Startaplar hali ham banklardan garov evaziga kredit so‘rashga majbur. Germaniyadagidek, davlat va xususiy biznes hamkorligida, garov talab qilmaydigan, g‘oya uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulushdir bo‘lib kiradigan maxsus "Yashil kapital" fondlarini tashkil etishimiz zarur.

Shundagina, oliygohlarimizdagi iqtidorli talabalarning ekologik g‘oyalari qog‘ozda qolib ketmaydi. Ular tayyor biznesga aylanib, sanoat hududlarimizning yashil iqtisodiyotga o‘tishida o‘z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Geng, Y., & Cote, R. P. (2003). Environmental management systems for improving eco-efficiency of industrial parks in China: A case study of Shenzhen. *Journal of Cleaner Production*, 11(7), 755-766.
2. World Bank. (2021). *Electrification of Public Transport: A Case Study of Shenzhen’s Bus and Taxi Fleets*. Washington, DC: World Bank Group.
3. Liu, L., Chen, C., Zhao, Y., & Zhao, E. (2015). China’s carbon market development and the pilota carbon emissions trading system in Shenzhen. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 47, 599-607.
4. Climate Bonds Initiative. (2020). *China Green Bond Market Research Report*. Joint Report by Climate Bonds Initiative and China Central Deposition & Clearing Co. (CCDC).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-57-sonli Qarori. Lex.uz
6. Republic of Korea. (2010). *Framework Act on Low Carbon Green Growth* (Enacted in 2009, Effective in 2010). Presidential Decree No. 22131, Seoul.
7. KIAT (Korea Institute for Advancement of Technology). (2018). *Regulations on the Operation of Green Certification System*. Ministry of Trade, Industry and Energy (MOTIE), Seoul.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-martdagi "Ekologik audit to‘g‘risida"gi O‘RQ-678-sonli Qonuni. *Xalq so‘zi* gazetasi, № 52 (7832).
9. BMWi (Federal Ministry for Economic Affairs and Energy). (2010). *Energy Concept for an Environmentally Sound, Reliable and Affordable Energy Supply*. Berlin: Federal Government of Germany.
10. European Commission. (2021). *Cluster-based eco-innovation ecosystem in Germany: Case of Munich and Baden-Württemberg CleanTech clusters*. Brussels: European Observatory for Clusters and Industrial Change.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi "Ilm-fan sohasidagi ishlarni rivojlantirish va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-5047-sonli Qarori.